

CHET TILINI O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARNING AMALIY AHAMIYATI

Abdumalikova Mushtariybegim Mashxurbek qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Xorijiy til va adabiyot fakulteti 1-bosqich talabasi.

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari bo'yicha

falsafa(PhD) doktori, dotsent Z.N.Abdusamadov

Annotatsiya. Ushbu maqolada chet tilini o'qitish jarayonida interaktiv metodlarning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Globallashuv sharoitida til o'qitish jarayonida talaba markazli yondashuvning dolzarbligi asoslab beriladi. Interaktiv metodlarning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, motivatsiyani oshirish hamda o'quv jarayonini samarali tashkil etishdagi roli ochib beriladi. Tadqiqot davomida tajriba-sinov ishlari asosida interaktiv metodlardan foydalanish natijalari tahlil qilinadi va ularning samaradorligi aniqlanadi.

Kalit so'zlar: interaktiv metod, kommunikativ kompetensiya, motivatsiya, talaba markazli ta'lim, innovatsion yondashuv, chet tili o'qitish metodikasi.

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations and practical significance of interactive methods in foreign language teaching. In the context of globalization, the relevance of student-centered approaches in language education is substantiated. The role of interactive methods in developing communicative competence, increasing motivation, and organizing an effective learning process is discussed. Based on experimental research, the effectiveness of interactive teaching methods is evaluated and practical recommendations are provided.

Keywords: interactive methods, communicative competence, motivation, student-centered learning, innovative approach, foreign language teaching methodology.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы и практическое значение интерактивных методов в обучении иностранным языкам. В условиях глобализации обосновывается актуальность личностно-ориентированного подхода в языковом образовании. Раскрывается роль интерактивных методов в развитии коммуникативной компетенции, повышении мотивации и эффективности учебного процесса. На основе экспериментального исследования анализируется результативность применения интерактивных методов обучения.

Ключевые слова: интерактивные методы, коммуникативная компетенция, мотивация, личностно-ориентированное обучение, инновационный подход, методика преподавания иностранного языка.

Bugungi kunda chet tillarini o'qitish jarayoni tobora takomillashib, an'anaviy yondashuvlar o'rnini zamonaviy va innovatsion metodlar egallamoqda. Globalizatsiya jarayonining jadallashuvi natijasida xorijiy tillarni bilish nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki kasbiy faoliyatda ham muhim omilga aylanmoqda. Xalqaro aloqalar, ilmiy izlanishlar va zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish jarayonida chet tilini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, samarali o'qitish usullarini qo'llash zarurati ortib bormoqda. An'anaviy ta'lim uslublarida asosiy e'tibor grammatik bilimlarni o'rganish va yozma mashqlarga qaratilgan bo'lsa, interaktiv metodlar o'quvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishiga imkon yaratadi. Bunday yondashuv o'quvchilarning real hayotiy vaziyatlarda chet tilidan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Til – muloqot vositasi bo'lgani uchun uni samarali o'rgatish jarayoni muloqotga asoslangan bo'lishi lozim. Interaktiv metodlar aynan shu jihatdan ustunlikka ega bo'lib, o'quvchilarning darsga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi. Xususan, rolli o'yinlar, muhokama klublari, jamoaviy loyihalar, multimedia vositalari va boshqa innovatsion texnologiyalarning o'quvchilarning lingvistik hamda kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishdagi ahamiyati yoritiladi.

Interaktiv metod tushunchasi "*interaction*" — o'zaro ta'sir so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'quv jarayonida faol muloqotga asoslangan metodlarni anglatadi. Ushbu yondashuv kommunikativ metod bilan chambarchas bog'liqdir. Kommunikativ yondashuvga ko'ra, til o'rganishning asosiy maqsadi — kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdir. Bu esa quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi: lingvistik kompetensiya, sotsiolingvistik kompetensiya, diskursiv kompetensiya, strategic kompetensiya kabilar. Interaktiv metodlar aynan ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Interaktiv metodlarning asosiy turlari:

1. Rolli o'yin (Role-play)

Talabalar real hayotiy vaziyatlarni sahnalashtiradi. Bu metod og'zaki nutqni rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Masalan, ish suhbat, sayohat jarayoni, savdo-sotiq vaziyati.

2. Debat metodi

Talabalar ma'lum masala yuzasidan qarama-qarshi fikrlarni himoya qiladilar. Bu metod tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

3. Aqliy hujum (Brainstorming)

Yangi mavzu bo'yicha g'oyalar ishlab chiqiladi. Bu metod lug'at boyligini oshiradi.

4. Case-study

Muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali tilni amaliy qo'llash imkonini beradi.

5. Kichik guruhlarda ishlash

Talabalar hamkorlikda vazifa bajaradilar. Bu jamoaviy kompetensiyani shakllantiradi.

Shu bilan birga yana bir qancha samarali metodlar mavjud bo'lib, chet tillarini o'qitishda ushbu metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi: tarixiy metodlar (yo'nalishlar), tarjima metodi, aralash metod, qiyosiy metod, jarayon metodlari (faoliyat usullari), tanishish metodi, mashq qilish metodi, qo'llash metodi. Chet tillarni o'qitish uslublari va metodikasi so'nggi yillarda jiddiy o'zgarishlarga duch keldi. Zamonaviy texnologiyalar, innovatsion pedagogik yondashuvlar va interaktiv metodlarning joriy qilinishi chet tilini o'qitishni yanada samarali qilishga yordam bermoqda

1. Kommunikativ yondashuv.

Bu yondashuvning asosiy maqsadi talabalar o'rtasida real hayotda chet tilida muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishdir. An'anaviy grammatik qoidalar o'rniga, kommunikativ vaziyatlar asosida til o'rgatishga e'tibor qaratiladi. Ushbu metod yordamida talabalar chet tilida erkin so'zlashishni va o'z fikrini to'g'ri ifoda etishni o'rganadilar.

2. Interaktiv texnologiyalar.

Zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi bilan chet tillarni o'rganish jarayoni yanada qiziqarli va samarali bo'lib qoldi. Masalan, onlayn platformalar, virtual sinflar, mobil ilovalar orqali talabalar til ko'nikmalarini mustahkamlaydilar. Bu vositalar tilni o'rganishda interaktivlikni oshiradi va individual yondashuv imkonini beradi.

3. CLIL (Content and Language Integrated Learning) metodikasi.

Bu metodikada chet tili faqat lingvistik maqsadlarda emas, balki boshqa fanlar bilan birga o'rganiladi. Masalan, biologiya yoki tarix fanlarini ingliz tilida o'qitish orqali talabalar tilni tabiiy ravishda o'rganadilar va shu bilan birga fanga bo'lgan qiziqishlari ortadi. Ushbu yondashuv ayniqsa, O'zbekistonning ba'zi maxsus maktablari va oliy ta'lim muassasalarida keng qo'llanilmoqda.

4. Differensial yondashuv.

Bu yondashuv har bir talabaning individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga asoslangan. Har bir talabaning bilim darajasiga qarab, ularga mos o'quv dasturlari va materiallar taklif etiladi. Bu usul talabalar o'rtasidagi individual farqlarni hisobga oladi va ta'limning sifatini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda chet tillarni o'rganish va o'qitish sohasidagi o'zgarishlar va yangiliklar mamlakatni global maydonga yanada yaqinlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, texnologiyalar va davlat siyosati chet tillarni o'qitishni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu jarayonlar orqali kelajak avlodning xalqaro aloqalarda faol ishtirok etishi, yuksak bilimga

ega bo'lishi va yurtimizning jahon sahnasida o'z o'rnini mustahkamlashi ta'minlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J. Jalolov "Chet til o'qitish metodikasi" Toshkent. 2012-y.
2. F. Zaripov . Chet tillar o'qitish metodikasidan qo'llanma. T.2002-y.
3. O'zbekistonda oliy ta'lim. Ilmiy ommabop jurnali, 2022-yil, 4-son

